	Gender Equality: an Important Prospect for the Development of a New Uzbekistan..... 1902 <i>Khamidova Sitorakhan Mukhammadjonovna</i>
	Gandbolchilarning jismoniy sifatlarini harakatli o'yinlar orqali rivojlantirish..... 1906 <i>Lutpullayev Bunyod Ismatilayevich</i>
	Abu Mansur al-Moturidiyning bilimning "Muvofiqlik nazariyasi" 1909 <i>Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi</i>
	Professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarning rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning afzalliklari..... 1914 <i>X. N. Agaliyeva</i>
	Maktabgacha ta'limda bolalarning hissiy-ma'naviy rivojlanishida didaktik o'yinlarning ahamiyati 1920 <i>Urinbayeva Barchinoy Zafarjanovna</i>
	Yoshlarni milliy musiqa san'ati va an'anaviy xonandalikka bo'lgan munosabatini tarbiyalash 1924 <i>Qurbonova Shoxisanam Axmadjonovna</i>
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tabiiy fanlar mavzularini o'rganishdagi klaster yondashuvlari. 1930 <i>Umarova Nafisa Ahmatillovna</i>
	11–15 yoshli suzuvchilarning mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish xususiyatlari 1934 <i>Hasanov Anvar Toxirovich, Asqarova Zaynura</i>
	Yosh voleybolchilarning jismoniy rivojlanishini o'rganish 1937 <i>Sultonov Baxtiyor Abdumurodovich, Hasanov Anvar Toxirovich</i>



Школьные трудности в обучении и педагогическое диагностирование	1940
<i>Урумбаева Айгуль Нагметовна</i>	
Erkin kurashchilarda maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda funksional kuch mashqlarining samaradorligi.....	1943
<i>Meliqo'ziyev Azizjon Adxamjon o'g'li</i>	
Употребление падежных окончаний на уроках русского языка	1947
<i>Адилова Солияхон</i>	
STEAM va raqamli ta'lim texnologiyalari asosida alfa avlod o'quvchilarida kreativ tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	1951
<i>Boltayeva Go'zal Komilovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida olib boriladigan mashg'ulotlarda zamonaviy ta'lim texnologiyalariga qo'yiladigan didaktik talablar	1954
<i>Mansurova Lobar Luqmon qizi</i>	
Translation Techniques as an Integral Part of Foreign Language Teaching and Learning: Benefits and Potential Issues	1958
<i>Yusupova Nargiza Abdulxafizovna</i>	
Использование интерактивных методов обучения русскому языку в медицинском вузе.....	1963
<i>Бекмуратова Умида Аманбаевна</i>	
Nogironligi bo'lgan bolalarda adaptiv jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining sog'liqni saqlashdagi o'rni.....	1967
<i>Namozova Nargiza Husniddin qizi</i>	
The Importance of the Theoretical Basis in Educating Preschool Children in the Spirit of National Education Within the Family.....	1971
<i>Rakhmonova Diyora Utkir's daughter</i>	
Kurash mashg'ulotlarida sportchilarning funksional tayyorgarligini oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari.....	1976
<i>Nurullayev Abduxoliq Qaxxorovich</i>	
Voleybol mashg'ulotlarida funksional tayyorgarlikni oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari ...	1980
<i>Davulov Ozodbek Qalandarovich</i>	
18–21 yoshdagi talaba futbolchilarni kompleks tayyorlashning nazariy va uslubiy jihatlari.....	1984
<i>Djemilov Temur Rasimovich</i>	
Oilaviy nizolarning bolalar psixikasiga ta'siri.....	1989
<i>Tulyaganova Dilnoza Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich maktab yoshidagi (6–8 yosh) chap qo'li dominant bo'lgan bolalarning psixologik rivojlanishi va xususiyatlari	1993
<i>Usmanova Sevara Akmalovna</i>	
Matematika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar orqali darsni qiziqarli va samarali qilish usullari ...	1996
<i>Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich</i>	
Entropiya o'lchovlarining nazariy asoslari: Shannon, Reyni va Tsallis entropiyasi taqqoslamasi.....	2001
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Abdurashidov Saydullo Xayrullo o'g'li</i>	
Sun'iy intellekt vositalari asosida kiberijtimoiylashuv samaradorligini oshirishning pedagogik sharoitlari va monitoring mexanizmlari.....	2007
<i>Istamova Dilnoza Norboyevna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida kompetensiyaviy yondashuvga tayanib ta'lim mazmunini boshqarish	2012
<i>Turaxujayeva Madina Norpulatovna</i>	
Para armrestlingchi talabalarni musobaqa oldi texnik tayyorgarligini takomillashtirishda kuch sifatining o'rni.....	2015
<i>Karimov Faxriddin Xurramovich</i>	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri	2019
<i>Djabbarov Axror Islomovich</i>	
Tinchlik madaniyati konsepsiyasining evolyusiyasi: klassik va zamonaviy falsafa.....	2023
<i>Abdumalikov Ilimjon Abduxamjonovich</i>	
Talabalarning muammoga asoslangan topshiriqlar orqali kognitiv mustaqilligini rivojlantirish: mohiyat va mazmun	2028
<i>Abduvaliyev Nurillo Abdujalilovich</i>	
Oliy ta'lim muassasasi pedagoglari innovatsion faoliyatining ijtimoiy psixologik xususiyatlari	2032
<i>Almardanova Salomat Bobonazarovna</i>	

Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish zarurati	2035
<i>Ashirov Abdurashid Ravshanovich</i>	
Pedagogik ta'lim klasteri tizimi asosida maktab laboratoriya innovatsion loyihagini amalga oshirishning o'ziga xosligi	2040
<i>Azimova Odinaxon Abduqodir qizi</i>	
Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish.....	2043
<i>Kayumova Nazokat Rashitovna</i>	
Uzluksiz ta'lim tizimida texnologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishning metodik asoslari	2049
<i>Kurbanov Baxrom</i>	
Ingliz tilida o'qitish vositasi sifatida monologlardan foydalanishning muvaffaqiyatli strategiyalari	2053
<i>Madaminova Nilufar Madrasulovna</i>	
Raqamli texnologiyalar davrida o'quvchilarning psixologik xavfsizligini ta'minlash muammolari	2056
<i>Mahmudov Dilmurod Rahmatjonovich</i>	
Gamifikatsiya va STEAM texnologiyalarini joriy etish orqali boshlang'ich ta'limda inklyuziya va teng imkoniyatlarni ta'minlash	2059
<i>Mamadjanova Diloromxon Baxtiyor qizi</i>	
Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2064
<i>Mamarasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich</i>	
Maktab yoshidagi o'quvchilarda suzish mashg'ulotlari orqali jismoniy rivojlanish va funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlarini oshirish metodikasi.....	2067
<i>Mengliqulov Xayrullo Aliqulovich</i>	
O'quv jarayonida "Data Science" elementlarini integratsiyalashning didaktik imkoniyatlari	2072
<i>Mo'minova Dilnavoz Komilovna</i>	
Muloqot kompetensiyasining pedagogik-psixologik mazmuni va rivojlanish omillari.....	2077
<i>Narbayeva Malohat Xudayberdiyevna</i>	
O'g'il va qiz bolalarda gender tasavvurlarning shakllanishida ota-onaning liderlik maqomining roli.....	2080
<i>Ogina Otajonova</i>	
Yarimo'tkazgichlar fizikasi fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy asoslari	2084
<i>Oromiddinov Sardorbek Botirovich</i>	
Yangi O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishda media vositalardan foydalanish metodlari	2089
<i>Qobilov Vohidjon Asliddin o'g'li</i>	
Inklyuziv ta'limda pedagoglarni tayyorlashning zamonaviy tendensiyalari va innovatsion yondashuvlar ...	2092
<i>Qodirova Feruza Usmanovna</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yinli texnologiyalardan unumli foydalanishning roli.....	2095
<i>Sobirova Bonu Matkarimovna</i>	
Kichik yoshli bolalarning olamni idrok etishlarida oila tarbiyasining ahamiyati	2099
<i>Sobirova Fotimaxon Baxodir qizi, G'aniyeva Shodiya Azizovna</i>	
Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2102
<i>Mamarasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning didaktik tizimi	2105
<i>Ulug'berdiyeva Dilbar Qarshibekovna</i>	
Kurashchi qizlarning texnik harakatlarining kinematik va kinetik modellashtirish	2109
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi</i>	
Lingvokulturologiya va kommunikativ yondashuv integratsiyasi asosida talabalarda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish.....	2114
<i>Y. T. Umarova</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatda kasbiy barqarorligini ta'minlovchi psixologik omillar	2118
<i>Yakubova Manzura Abduraxmonovna</i>	
Integratsiyalashgan darslar orqali talabalarining kreativ salohiyatini rivojlantirish	2121
<i>Yaxyayeva Umida Sharifovna</i>	
Tibbiyot oliy ta'limida "O'zbekiston tarixi" fanining amaliy komponentini kuchaytirish: klinik-ijtimoiy kontekst orqali o'qitish modeli	2125
<i>Yulchiyeva Gulnozaxon Shuxratbek qizi</i>	
Radiatsion fonning inson hayot faoliyatiga ta'siri mavzusini o'rganishning pedagogik ahamiyati	2130
<i>Sodiqov Murod Naimovich</i>	



Talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda zamonaviy jismoniy tarbiya metodlarining samaradorligi	2134
Tashpulatov Farxad Alisherovich	
“Arba’in” asarida qit’alarning vazniy xususiyatlari.....	2140
Eshniyazova Maysara Beknazarovna	
Guruhiy loyihalar orqali bolalarda hamkorlik va muloqot ko’nikmalarini tarbiyalash.....	2145
Negmatova Sanobar Qarshiboyevna	
Sport takomillashuv gurugidagi futbolchilarni o’yinga yo’naltirilgan mashg’ulotlar orqali musobaqaga tayyorgarlikni takomillashtirish	2149
Mamatraimov Anvar Chorshanbiyevich	
Oliy ta’lim raqobatbardoshligining ta’lim sifatini oshirishdagi roli	2155
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
Sharq donoligi va zamonaviy ta’lim uyg’unligi	2162
Djurakulova Adolat Xolmuratovna	
The Role of Artificial Intelligence in Teaching English as a Foreign Language	2165
Babayeva Komila Rishatovna	
Zaif eshituvchi bolalarga tasviriy san’atni o’rgatishning metodik asoslari (miniatyura misolida).....	2169
Buharbayev Muxtar Yusupovich	
Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining axloqiy va estetik madaniyatini takomillashtirish: maxsus yondashuvlar	2172
Do’schanova Nafosat Norimonovna	
Boshlang’ich sinf o’quvchilarida tanqidiy fikirlashni rivojlantirish texnologiyalari	2176
Fayzullayeva Feruza Raxmatovna	
Bo’lajak o’qituvchilarda kommunikativ madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	2179
Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi	
Dialekt va adabiy til: o’zaro munosabat.....	2183
Jumanazarova Guljahon	
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalariga kommunikativ kompetensiyalarni o’rgatishda interaktiv ta’lim texnologiyalar.....	2187
Kimsanboyeva Ruksoraxon Ziyodbek qizi	
Pedagogik nizolarni hal etishda bo’lajak o’qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari	2190
Norjon Jamilova Abduxoliq qizi	
Abu Nasr Farobiy asarlari asosida talabalarni boshqaruv madaniyatini rivojlantirish.....	2194
Shamsiyeva M. R.	
O’smirlarda affiliatsiya motivini shakllantirishning pedagogik-psixologik determinantlari	2196
Tojiboyeva Gulxumor Raxmanjanovna, Saidova Maftuna Xakim qizi	
Преподаватель - русист в современной национальной школе: личный опыт и методические находки	2200
Хамидова Гулноза Турсунбаевна (Турсунбой кизи)	

O'G'IL VA QIZ BOLALARDA GENDER TASAVVURLARNING SHAKLLANISHIDA OTA- ONANING LIDERLIK MAQOMINING ROLI

Odina Otajonova

Toshkent amaliy fanlar universiteti

“Psixologiya kafedrası psixol.f.n,dotsent

ORCID: 0009-0006-2734-8981

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek oilasida tarbiya topayotgan o'smir yoshli o'g'il va qiz bolalarning o'z jinsini anglashi jarayonida ota-onaning, ulardagi liderlik rollari taqsimotining, o'zbek ayoli va erkagining oiladagi mavqei ular tarbiyalayotgan o'g'il va qiz bolalarda gender tasavvurlarning adekvat shakllanishi uchun obyektiv shart-sharoitlar va ijtimoiy-psixologik omil ekanligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: liderlik maqomlari, gender ustanovkalari, jinsiy identifikatsiya, gender roli, oilada o'zaro munosabatlar, gender stereotiplari, jinsiy tarbiya.

Abstract: This article examines the role of parents in the process of adolescents' awareness of their gender identity, focusing on boys and girls raised in Uzbek families. It analyzes the distribution of leadership roles between parents, as well as the position and status of Uzbek women and men within the family, viewing these as objective conditions and socio-psychological factors that contribute to the adequate formation of gender perceptions among the children they raise.

Key words: gender identity, gender role, intra-family relations, gender stereotypes.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль родителей в процессе осознания своей половой принадлежности подростками – мальчиками и девочками, воспитывающимися в узбекской семье. Анализируется распределение лидерских ролей между родителями, а также место и статус узбекской женщины и мужчины в семье как объективные условия и социально-психологические факторы, способствующие адекватному формированию гендерных представлений у воспитываемых ими детей.

Ключевые слова: половая идентификация, гендерная роль, внутрисемейных отношений, гендерные стереотипы.

KIRISH

Fuqarolik jamiyati va undagi oilalarda ro'y beradigan har qanday o'zgarishlar bir-biriga o'zaro bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda oilaning, ota-onalarning, jumladan, xotin-qizlarning o'rni beqiyosdir.

Keyingi yangi davrda gender tenglik masalasi, xotin-qizlarning davlat va jamiyat qurilishidagi rolini oshirishga bag'ishlangan qator tadqiqotlarga yosh psixolog olimlarning qo'shilishi ushbu yo'nalishning ham istiqbolli ekanligini ko'rsatmoqda.

Davr talabidan kelib chiqayotgan bu vazifa o'zbek psixologlari oldiga qator muammolarni qo'yish bilan birgalikda ulardan gender muammolari, xususan, shaxsning jinsiy o'zini-o'zi anglash jarayonida ro'y beradigan psixologik xususiyatlarni gender tamoyillari nuqtai nazaridan o'rganishni, bunda oila omilini, undagi er-xotin, "Ota-ona – farzand" munosabatlarining ta'sirini ilmiy jihatdan asoslash va oilada jinsiy identifikatsiyaning ijtimoiy ustanovkalar va refleksiv jarayonlarga bog'liqligini yoritishni, bu jarayonning o'zbek oilasida voyaga yetayotgan o'g'il-qizlarning ijtimoiy tasavvurlari qanday aks etishini kompleks tarzda tadqiq etishni talab qiladi.

Shu ma'noda, bizning tadqiqotimiz, aynan oilaviy o'zaro munosabatlarning gender xususiyatlari alohida tadqiqot predmeti sifatida o'rganilganligi bilan ahamiyatlidir. Zero, hozirgi erkinlik va demokratik munosabatlar rivojlanib borayotgan sharoitda gender tafovutlar doirasida shaxsning jinsiy o'z-o'zini anglashida qanday o'zgarishlar ro'y berayotganligi, ushbu jarayonlarning o'sib kelayotgan yosh avlod ongi va ijtimoiy xulqida qanday o'zgarishlarni keltirib chiqarayotganligi, ularda shaxsning jinsiy o'zini-o'zi anglashi – ijtimoiy identifikatsiya sifatida oila ob'ektida o'zining aniq ilmiy dalillarga va xulosalarga ega emasligi, bizni bu muammoni taqiq etishimizga turtki berdi.



Tadqiqot mobaynida to'plangan ma'lumotlar shundan darak beradiki, oila muhiti va tarkibiga bog'lik tarzda bolada jinsiy o'zini-o'zi anglash aniq chegaralanmagan yoshda namoyon bo'la boshlaydi. Ularning va undagi qabul qilingan qadriyatlar an'analar, oilada jinsiy o'zini-o'zi anglashiga bola tarbiyalanadigan ma'lum muhit munosabatlarning o'ziga xosligi, oila tarkibi, mavjud gender stereotiplar, ota-onaning oiladagi gender roli, jinsiy tarbiya borasidagi qarashlari va shaxsiy fazilatlariga bog'liqdir. So'nggi yillarda ayollarning ijtimoiy hayotida tutgan o'rnining o'zgarib borishi umuman yigit va qizlar psixologiyasida qator sifatning o'zgarib borishi ularning jamiyat va oiladagi gender o'rniga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmasligi ham tadqiqotda qisman o'z tasdig'ini oldi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ko'rib chiqilgan adabiyotlarda professor V.Karimova va ko'plab olimlar oilaviy o'zaro munosabatlarda amalda liderlikning, ya'ni, erkakning yoki ayolning oilaning boshqa a'zolari irodasi va hissiyotlariga ta'sir ko'rsatishi orqali obro'-e'tibor qozona olish qobiliyati shu muhitda tarbiyalanayotgan farzand irodasiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar ekanligini, o'smir yoshli o'g'il qizlarning o'z jinsi imkoniyatlari hamda shaxsiy xususiyatlari to'g'risidagi tasavvurlarining shakllanishida muhim rol o'ynashi va uning o'z jinsi imkoniyatlari hamda shaxsiy xususiyatlari to'g'risidagi tasavvurlarining shakllanishida muhim rol o'ynashini takidlanganlar.

G.M. Andreeva Rossiya va post-sovet hududida oilaviy psixologiya va ijtimoiy psixologiya bo'yicha tadqiqotlar olib borgan olimadir. G.M. Andreevaning fikriga ko'ra: oila – ijtimoiy-psixologik tizim oila faqat biologik yoki huquqiy birlik emas, balki murakkab ijtimoiy-psixologik tizimdir unda hissiy aloqa, muloqot, o'zaro ta'sir va rollar mavjud. Oila ichidagi munosabatlar jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning kichraytirilgan modeli hisoblanadi.

V. M.Karimova o'zbek psixologi va olimasi, asosan oila psixologiyasi, oilaviy munosabatlar va shaxs tarbiyasi sohalarida ilmiy ishlari bilan tanilgan mutaxassis. V. M.Karimova fikriga ko'ra oila – shaxs kamolotining asosiy muhiti, bolaning birlamchi ijtimoiylashuv makoni, axloqiy, ma'naviy va psixologik sifatlar shakllanadigan asosiy muhitdir. Uoilani: o'ziga xos ijtimoiy-psixologik tizim, rollar, me'yorlar, an'analar va o'zaro munosabatlar majmui sifatida talqin qiladi. Er-xotin munosabatlari oilaning barqarorlik asosi oila mustahkamligi er va xotinning o'zaro hurmati, mas'uliyati va psixologik mosligiga bog'liqdir.

Olimat ul-banot – islomiy-ma'rifiy an'anada tanilgan ayol muallima. Olimat ul-banotning oila haqidagi fikrlariga ko'ra: Oila – jamiyatning asosioila jamiyatning eng muqaddas va mustahkam poydevori; jamiyatning axloqiy holati oilalarning ahvoriga bog'liq. Agar oila sog'lom bo'lsa, jamiyat ham sog'lom bo'ladi. Oila – ma'naviy va axloqiy tarbiya maskani. U ta'kidlaydiki:

bolaning diniy e'tiqodi, axloqi, odobi, hayo va iymoni eng avvalo oilada shakllanadi. Oila – farzand uchun birinchi maktabdir. er va xotin o'rtasidagi munosabatlar: mehr, sabr, hurmat, mas'uliyat asosida bo'lishi lozim.

I.S. Klesina – bu ilmiy psixologiya sohasidagi olimasi bo'lib, oila va oilaviy munosabatlar mavzusida ham ilmiy maqolalar yozgan tadqiqotchidir. Klesinaning oila haqidagi fikrlari: Oila – gender munosabatlarining asosiy maydoni va gender rollari shakllanadigan eng muhim ijtimoiy muhit; erkak va ayol haqidagi tasavvurlar eng avvalo oilada vujudga keladi. Oila jamiyatdagi gender tengligi yoki tengsizlikning manbai hisoblanadi. Oiladagi har qanday o'zgarish butun tizimga ta'sir qiladi. Gender rollar va ularning taqsimoti Klesinaning muhim g'oyalari biri: oiladagi rollar an'anaviy yoki teng huquqli (egalitar) bo'lishi mumkin; nizolar ko'pincha: rollarning adolatsiz taqsimoti, zamonaviy ehtiyojlar bilan eski stereotiplar to'qnashuvi natijasida yuzaga keladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

V.M Karimovanning yoshlarning oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha ijtimoiy psixologik kontsepsiyasi metodologik asos bo'ldi.

Birinchiidan, Tadqiqot davomida to'liq oilalardagi o'smirlar va ularning ota onalaridagi oilaviy munosabatlari tizimida jinsiy identifikatsiyasi va gender tasavvurlarini o'rganishda, bu jarayonning o'ta murakkab va nozik jarayon ekanligi inobatga olindi. Tadqiqotimizning nazariy asosini yaxshi bilgan holda, ilgari surgan ilmiy taxminlarimiz – gipotezalarni to'g'ri ekanligini isbotlash uchun, tanlangan guruhda o'tkazilishi va bu respondentlarning bergan javoblari asosida erishilgan natijalar, reprezentativlik talabiga to'g'ri kelishiga erishdik.

Zero, ijtimoiylashuv jarayonida shaxs ongida jinsiy identifikatsiyaning qay tarzda aks etishini o'rganish borasida fanda muayyan metodologik va uslubiy an'analar mavjud. Lekin shu kungacha psixologiya, xususan, ijtimoiy psixologiyaning bu yo'nalishda qo'lga kiritgan yutuqlarini yetarli, deb baholab bo'lmaydi. (Andreeva G.M) [1]. Shuning uchun ham ilk yoshlikdan, ayniqsa, oilaviy o'zaro munosabatlar tizimida bolaning jinsiy identifikatsiyasi jarayonini o'rganishda to'plangan tajribani metodologik nuqtai nazardan umumlashtirish va muayyan sharoitlarda bu borada tadqiqotlar o'tkazish o'ta dolzarb va ahamiyatli ishdir. (I.S. Klesinoy) [5].

Oilaviy o'zaro munosabatlar tizimida jinsiy identifikatsiya jarayonining kechishiga shu oiladagi erkak va ayol jinsiga mansub shaxslarning o'zaro munosabatlari va shu orqali shakllanadigan erkaklik (maskulinlik) va ayollik (femininlik) fazilatlarini to'g'risidagi tasavvurlar katta rol o'ynaydi. Biz tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, jinsiy

identifikatsiyaga oiladagi liderlik maqomlari va u to'g'risidagi tasavvurlarni o'rganishni maqsad qildik. Chunki hozirgi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar davrida oilada kimning – otaning yoki onaning lider ekanligi muhim bo'lib, ushbu jarayonning farzand tomonidan idrok etilishi undagi gender tasavvurlar va ustanovkalarning asosini tashkil etadi.

Oilaviy o'zaro munosabatlarda amalda liderlikning, ya'ni, erkakning yoki ayolning oilaning boshqa a'zolari irodasi va hissiyotlariga ta'sir ko'rsatishi orqali obro'-e'tibor qozona olish qobiliyati shu muhitda tarbiyalanayotgan farzand irodasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va uning o'z jinsi imkoniyatlari hamda shaxsiy xususiyatlari to'g'risidagi tasavvurlarining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham biz tanlab olingan oilalardagi er va xotinning amaldagi liderlik maqomlari ijtimoiy tasavvurlarida qanday aks etganligini, so'ngra ularning farzandlaridagi gender identifikatsiyani o'rgandik.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot davomida aniqlangan natijalar shuni ko'rsatadiki, oilada ota-onalardagi liderlikka oid gender tasavvurlarni o'rganish uchun tanlab olingan oilalardagi ota-onalarning shaxsiy identifikatsiyasi Kettel metodikasi yordamida ularning o'zaro kommunikativ muloqotida namoyon bo'ladigan sifatleri, shu asnoda ularda aniqlangan liderlik tiplari o'rganildi.

Biz o'tkazgan tadqiqot ham oilada ota-onalarning o'zaro munosabatlari ta'sirida tarbiyalanayotgan qiz bolaning avvalo onasining otasiga munosabatiga e'tibor qaratishini, onaning oilada bajarayotgan gender rolga qarab o'zini kelajakda aynan ayollik va onalik rolga tayyorlab borishini isbotladi. Otaning onaga munosabatiga qarab esa, qizlar odatda o'zini kelajakda turmush o'rtog'iga nisbatan qanday tutishini o'rganib boradi. O'g'il bolalardagi jinsiy tarbiyasida ham shunga o'xshash tamoyil ustivor bo'ladi, ya'ni, u ham ota onalar o'zaro munosabatlariga mos tarzda o'zini kelajakda oila boshlig'i, er rolga hamda onasining yurish-turishi va farzandlarga munosabatiga qarab, otalik rolga ruhan tayyorlab boradi.

Biz tekshirgan erkak respondentlarda yuqori ko'rsatgichlarda moslashuvchanlik, muloqot qobiliyati, iroda, o'ziga ishonch bilan to'g'ri qarorlar chiqarishga va muvaffaqiyat qozonishga moyillik, o'ziga nisbatan hurmat, boshqalarni tushunish, kirishimlilik, shu bilan birgalikda agressivlik, avtoritarlilik vositasida turmush o'rtog'iga ta'sir ko'rsatishga intilishlari ma'lum bo'ldi. Bunday ustanovkalarning turmush o'rtog'larida qanday ta'sir qilishi, eng muhimi – shu oilada bola ongiga nechog'li ta'siri masalasi ijtimoiy-psixologik nuqta nazardan o'ta muhimdir. Ikkinchi tomondan, maxalliy muhitimizdagi oilaviy munosabatlar an'analarga ko'ra, aynan erkaklardagi bu sifatlar ularning farzandlari va turmush o'rtog'i oldidagi maqomini ko'taruvchi omil sifatida qaralishini ham unutmazlik lozim. Nima bo'lganda ham aynan shu maskulin sifatlar muayyan ma'noda bizning tasavvurlarimizdagi gender stereotiplarining asosidir. (V. Karimova) ^[2..3]

Tadqiqotimiz jarayonida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, jinsiy emansipatsiya ayollarga ko'plab ijobiy sifatning sohibi bo'lishlarini ta'minlagani holda, turmush o'rtog'larida muayyan asl erkaklik sifatlarining hamon ustun saqlanib qolishini ham ta'minladi. Bu erkaklar uchun ishlab chiqarish, tadbirkorlik sohalarida qo'lga kiritayotgan yutuqlarning motivi, sharti va imkoni bo'lib, ularning biz o'rgangan oiladagi liderlik mavqeini asoslaydi. Shu bois ham biz har bir faktorning shaxsdagi liderlikning ayni bir qirrasini ustun ifodalashidan kelib chiqib, umumlashtirilgan ma'lumotlar jamlamasini ham qo'lga kiritdik.

Tadqiqot mobaynida biz liderlikning shaxsiy, frustratsion, ishonchli-sheriklik, agressiv va majburlashga asoslangan 5 xil tipini aniqladik va empirik farazlarning isbotini tekshirish uchun ularning shu oilada tarbiyalanayotgan o'smirlardagi gender tasavvurlarga qanchalik aks etishi mumkinligi ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil etishga urindik. Ota-onalarning shaxsiy javoblari asosida to'plangan materiallar asosida 36 ta oiladagi liderlik tiplarining nisbati ushbu jadvalda keltirilgan.

Ota-ona respondentlarning liderlik tiplari bo'yicha taqsimlanishi foiz hisobida (n=72)

Liderlik tiplari	Ayollar (n=36)	Erkaklar (n =36)
Shaxsiy magnetizm	15,4	5,6
Frustratsion liderlik	27,6	14,9
Ishonchli sherikchilik	33,3	19,5
Agressiv	8,3	26,7
Majburiy (tazyiqli) liderlik	15,4	33,3

Jadvaldagi raqamlar katta ijtimoiy guruhga taalluqli bo'lmasa-da, undagi ma'lumotlar bizning respondentlardagi oilaviy munosabatlardagi liderlik masalasiga oid gender tasavvurlaridagi muayyan polyar farqlar borligini ko'rsatib turibdi. Chunki raqamlardan ma'lumki, ayollar ko'proq javoblari bilan o'zlarida frustratsion hamda



shirikchilikni afzal ko'ruvchi liderlikka moyil ekanliklarini, erkaklar esa o'zlarida majburan aks etadigan, namoyishkorona liderlik hamda agressiv liderlik xislatlariga ega ekanliklarini bildirdilar. Bundan hali aynan ular o'z oilalarida shunday liderlikni namoyon etadi, degan xulosa kelib chiqmaydi, chunki real hayotda aynan majburan liderlik tipi umuman liderlikka, oiladagi barcha munosabatlarda yetakchi bo'lishga da'vogarlik qilmaydi.

Biz olgan natijalarnig eng etiborga molik tomoni, ayollarning aksariyati oilaviy o'zaro munosabatlarda agressiv liderlikdan qochishlari (8,3% xolos), shaxsiy magnetizm va majburiy liderlikdan vaqti-vaqti bilan foydalanishni afzal ko'rishlarini (15,4%) aniqladik. Erkaklar javoblari tahlilida esa aynan ayollar javoblariga xos bo'lmagan liderlik shakllari ko'proq namoyon bo'lmokda, ya'ni, ular mehr-muhabbat va o'zaro kelishuv asosida oilaviy munosabatlarni muvofiklashtirishdan ko'ra (5,6% xolos), ochik majburiy (tayzikli) liderlik hamda kerak bo'lsa, agressiv liderlikni namoyon etishga moyil va tayyorroq ekanligi raqamlardan ma'lum bo'lib turibdi. Demak, biz qo'lga kiritgan empirik ma'lumotlarning ishonchiligi va asosli ekanligini yana bir marotaba tasdiqlaydi. Sharq erkaklariga xos bo'lgan oilada yetakchilikka mutloq da'vogarlik hali-xanuz erkaklarning ijtimoiy ustanovkalarining kognitiv sohalarida saqlanib qolgan.

Erlariga qarama-qarshi o'laroq, shaxsiy sifatlar nuqtai nazaridan o'zlarini ayollar erkaklardan kam hisoblamasalarda, baribir, oilaviy munosabatlarda erkaklar bilan kelishib yashash, oilaviy muammolarni hal etishda sherikchilik munosabatlariga tayanishga moyil ekanliklarini namoyon etmokdalar. Bu ham o'zbekistonliklar oilasini qadriyat sifatida ushlab turgan sifatlardir.

Demak, biz tanlagan empirik ob'ektdagi kattalarning oilaviy munosabatlari xarakteri ularning o'z farzandlaridagi gender o'ziga xoslikni tarbiyalash, jinsiy identifikatsiyaning shakllanishiga imkon beruvchi ijtimoiy-psixologik muhit rolini o'ynashga qodir. Chunki davr taqozosi bilan xotin-qizlarda shakllanayotgan yangi, demokratik, faol sifatlar qizlar psixologiyasiga qanchalik ijobiy ta'sir ko'rsatsa, shu oilada kamol topayotgan o'g'il bolaning tasavvurlarida jinslararo muloqotning samarali shakllari to'g'risida bilimlar bo'lishiga ham imkon beradi. To'liq oila muhitida hamkorlik va sherikchilikka asoslangan er-xotin munosabatlaridagi erkakning o'rni va roli ham o'g'il bolada erkak jinsiga oid identifikatsion sifatlarning namoyon bo'lishi va shakllanishiga maqbul shart-sharoit sifatida rol o'ynashi mumkin. Erkakning faol va yetakchi mavqei, undagi liderlikning sifati va turidan qat'iy nazar, qiz bolada istiqbolda oilaviy munosabatlarda zamonaviy ayol-ona obraziga ega bo'lish va gender muomala maromlarini aniq tasavvur etishga imkon beradi.

Ya'ni oila muhitida ustivor bo'lgan munosabatlar uslubi va er-xotin munosabatlari o'smir yoshlarning jinsiy identifikatsiya jarayoniga bevosita ta'sir qiladi, uning mazmuni va yo'nalishini belgilaydi. Bu bizning tadqiqotimizda ishtirok etgan erkaklar va ayollarning oilaviy muloqot tizimidagi o'zaro munosabatlari, bir-birlarini qarama-qarshi jins vakili sifatida idrok qilishlarining o'ziga xosligidan, oilaviy tizimda liderlikning shakli va xususiyatlaridan kelib chiqadi. Umumlashgan erkaklik va ayollik obrazlarida gender tenglik xususiyatlari tobora yaqqolroq namoyon bo'layotganligi empirik ma'lumotlarda o'z isbotini topdi.

Zamonaviy o'zbek oilasidagi erkaklar va ayollarning o'zaro munosabatlarida ayollar mavqeining mustahkamlanib borayotganligi, ularning liderlik pozitsiyalarida hamda turmush o'rtoqlarini hamkor va sherikchilik munosabatlari tizimida ko'rishni afzal ko'rishlarida namoyon bo'ldi. Shu sababli ham bu holat ularning o'z jinslarini va turmush o'rtog'idagi qarama-qarshi jinsga nisbatan ustanovkalarini belgilaydi. Tadqiqotimiz ayollik va erkaklik obrazlarida femininlik sifatlari ko'proq maskulinlik va androgenlik sifatlariga o'rin berayotganligini ko'rsatdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib ta'kidlaydigan bo'lsak, biz tadqiq etgan bu muammoning o'ta dolzarbligi eng avvalo uning tarbiyaviy mohiyati bilan izohlanadi. Bu muammoning hayotiy va dolzarbligi shunda-ki, u o'zbek xalqi ma'naviy madaniyatining o'sishiga, har bir individ shakllanishining asosiy o'chog'i hisoblangan oila muammolarini hozirgi davr talablari darajasida tezroq va samaraliroq yechishga yordam berishi, sog'lom, barkamol, mukammal avlodni o'z jinsiga hamda milliy qadriyatlarimizga xos tarzda tarbiyalash, sog'lom naslni yaratish ishiga munosib hissa bo'lib qo'shilishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Андреева Г.М. Психология социального познания: Учебное пособие. -М., 1997. –С.28
2. Karimova. V. M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. -t.: ! 994.
3. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi. Toshkent, 2007.- 118 b.
4. Oila: ijtimoiy himoya omillari. Ilmiy-ommabop maqolalar to'plami / Prof. V.M.Karimova tahriri ostida. – T., 2006 - 142 b.
5. Olimat ul –Banot. Muosharat odobi // Mas'ul muh. A. Irisov; tarj. va nashrga tayyorladi. T. Ziyoyev. - T.: Mehnat, 1991.- 32 Yu
6. Rizoiddin ibn Fahriddin. Oila. – T.: Mehnat, 1991 – 64 b.
7. Психология семейных отношений : конспект лекций / сост. С.А. Векилова.- М.: АСТ; СПб.: Сова, 2005 – 127 с.
8. Практикум по гендерной психологии / Под ред. И.С. Клециной. - СПб.: Питер, 2003.- 479 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.